
14 yoshlik a'zosi Muhammadazizbek chorva boqishni sir-asrorlarini bobosidan o'rganmoqda

Yurtimizda mehnat qilgan, izlangan odam hech qachon kam bo'lmaydi. Bugungi kunda hovlisida qoramol, qo'y-qo'zi, parranda, quyon boqish bilan shug'ullanib, o'zining tinimsiz mehnati bilan yaxshi natijaga erishib kelayotganlar talaygina.

Patiddin Oxunov Qo'shtepa tumanidagi "Xumdon" mahallasida yashaydi. Ular oilaviy chorvachilik bilan shug'ullanib keladi. Ushbu oilaga faoliyatini rivojlantirish va qo'shimcha daromad olishlari uchun mahalla hokim yordamchisining tavsiyasiga ko'ra 33 million so'm imtiyozli kredit ajratilgan.

Chorvachilik bilan shug'ullanishni yo'lga qo'yan oila vakillarining mashaqqatli mehnati natijasida zotdor chorvalarning soni kundan-kunga ortib bormoqda. Eng muhim ular mehnatlari ortidan yutuqlar ham erishib kelmoqda.

Oilanning 14 yoshlik a'zosi Muhammadazizbek chorva boqishni sir-asrorlarini bobosi Patiddin Oxunovdan o'rganib kelmoqda.

Muhammadazizbek Patiddinov kuni kecha Andijon viloyatida o'tkazilgan "Zottor qo'ylar" tanlovida "Zalato'y" laqabli qo'yisi bilan ishtirok etib, MDX davlatlari o'rtasida faxrli 1-o'rinni egalladi.

2024-12-02 12:46:41